



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2026-yil 10-fevral, № 27 (9198)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini
telefoningiz orqali skaner qiling.



QISHLOQ XO'JALIGI: YERLARNI O'ZLASHTIRISH VA ILM-FAN RIVOJIDA YANGI BOSQICH

Prezident Shavkat Mirziyoyev 9-fevral kuni qishloq xo'jaligida yangi yerlarni o'zlashtirish va sohada ilm-fanni yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Irrigatsiya va melioratsiya tadbirlari natijasida so'nggi besh yilda 826,5 ming gektar yer qishloq xo'jaligi foydalanishiga kiritildi. Shuning 409 ming gektari sug'oriladigan yerlar hisobiga, 418 ming gektari esa ilmiy va yaylov yerlarda yer osti suvlaridan foydalanish hamda kam suv talab qiladigan ekinlarni joylashtirish orqali o'zlashtirildi.

2030-yilgacha yana 938 ming gektar yaylovlarni o'zlashtirish va holatini yaxshilash rejalari taqdimot qilindi.

Xususan, 2026-2027-yillarda 620 ming gektar yaylov tiklanib, shuning 300 ming gektarida yaylov o'simliklari ekiladi, 130 ming gektarida quduqlar o'rnatiladi. Natijada 960 ming bosh mayda shoxli mol boqish, go'sht va jun ishlab chiqarish hajmini oshirish imkoniyati yaratiladi.

Yangi yerlarni o'zlashtirishda har bir hudud bo'yicha aniq investor va loyiha asosida ish tashkil qilish zarurligi qayd etildi.

Qishloq xo'jaligida ilm-fanni yangi bosqichga olib chiqish uchun amaldagi institutsional infratuzilmani o'zgartirish vaqti kelgani qayd etildi. Shu maqsadda sohadagi 22 ta ilmiy markaz, 260 ta laboratoriya hamda 2,5 mingdan ortiq olim va ilmiy xodimlarni yagona tuzilma – Qishloq xo'jaligi fanlari akademiyasiga birlashtirilishi belgilangan.

Taqdimotda biotexnologiya va molekulyar biologiya, gen injeneriyasi va gibrid urug'chiligi, "aqlli" qishloq xo'jaligi, kosmik va dron texnologiyalari, yerlar degradatsiyasi hamda sog'lom tuproq, organik qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi, veterinariya, raqamli qishloq xo'jaligini akademiya faoliyatining ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilash taklif etildi.

Akademiya faoliyatini samarali yo'lga qo'yish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab olindi.

Qishloq xo'jaligi uchun kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Hozirda Toshkent davlat agrar universitetida 13,6 ming talaba tahsil olayotgani, biroq o'quv jarayonining amaliyot bilan yetarlicha bog'lanmagan sababli bitiruvchilarning atigi 55 foizi o'z sohasida ishlayotgani ko'rsatib o'tildi.

Shu munosabat bilan ta'lim, ilmiy tadqiqot va ishlab chiqarishni uzviy bog'laydigan tizim yaratish, mehnat bozori talabiga mos yetuk mutaxassislar tayyorlash vazifalari belgilandi.

Jumladan, kelgusida universitet talabalarining 6,8 ming nafari ishlab chiqaruvchi tashkilotlar, korxonalar va agroklastarlarda, 2,6 mingdan ziyodi

Qishloq xo'jaligi vazirligi tizimidagi 22 ta ilmiy-tadqiqot institutida amaliyot o'taydi.

Shuningdek, fermer hamda uning xodimlari farzandlarining test sinovlarida ballari qabul parametrlariga yetmaganda, miqdori kamaytirilgan to'lov-kontrakt asosida universitetga qabul qilish, yettita ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qish davomiyligini 4 yildan 3 yilga qisqartirish taklif etildi. Talabalarni traktorch-mashinist guvohnomasi va agrodronlardan foydalanishga o'qitish yo'lga qo'yiladi.

Taqdimotda Agrosanoatni rivojlantirish agentligining faoliyati ko'rib chiqildi.

O'tgan yilda 44 ming gektar samarasiz yerlarda intensiv va sanoatlashgan bog' hamda tokzorlar tashkil qilib, 37 ming ish o'rni yaratildi.

Bu yerlarda tashkil etilgan bog' va tokzorlar 2027-yildan hosil berishni boshlab, yiliga 660 million dollar mevasabzavot eksport qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Masalan, So'xda 500 gektarda olma, malina va o'rik, Termiz tumanida 164 gektarda o'rik va shaftoli, Ohangaron tumanida 309 gektar, Bulung'urda 550 gektar hamda Quvada 60 gektar yerda uzumning "Avatar" navi, Pop tumanidagi 504 gektarda esa shaftoli va olxo'ri plantatsiyalari tashkil etildi.

Mazkur ishlarni davom ettirib, 2026-yilda 25,5 ming gektar mevali bog'lar va 5 ming gektar uzumzorlar tashkil qilib, 48 ming doimiy hamda mavsumiy ish o'rinlarini yaratish zarurligi qayd etildi.

Har yili mamlakatimizga 60 million dollarlik ko'chatlar import qilinmoqda. Ushbu ko'chatlarni Yevropa standartlari asosida o'zimizda tayyorlash uchun barcha imkoniyatlar mavjudligi ko'rsatib o'tildi.

Bu borada agentlik tomonidan 200 dan ortiq meva turlarining virusdan xoli, yuqori hosilli onalik navlari kolleksiyasi yaratilgan. Ushbu meva turlarini ko'paytirish va barcha hududlarga yetkazib berish maqsadida Bektemir tumanida 50 gektar, Yuqori Chirchiq tumanida esa 75 gektarlik "in-vitro" laboratoriyalari va onalik ko'chatxonalaridan iborat majmualar tashkil etilmoqda.

Ushbu majmualarni yil yakunigacha ishga tushirib, yillik 27 million tup ko'chat tayyorlash vazifasi qo'yildi.

Prezidentimiz taqdimotda muhokama qilingan masalalar yuzasidan mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

O'za.

SO'Z MULKINING SULTONIGA ENTIROM

9-fevral. Erta tongdan poytaxtimizdagi Adiblar xiyobonida so'z mulkining sultoni, o'zining muazzam asarlari bilan millionlab qalblarni zabt etgan ulug' amir, mutafakkir, shoir Mir Alisher Navoiy tavalludining 585-yilligi munosabati bilan tantanali marosim bo'lib o'tdi.

Adabiyot bayrami avvalida shoir ijodiga oid kitoblar ko'rgazmasi tashkil etildi. Milliy bog' ichra yangragan mumtoz ashula va kuylar esa yig'ilganlarni Alisher Navoiy so'zi hamda o'lmas g'oyalarini yana bir bor anglashga chog'ladi.


Shukuh



Ijodkor ziyolilar, navoiyshunos va adabiyotshunos olimlar, shoir-yozuvchilar, chet ellardan tashrif buyurgan mehmonlar hamda talaba-yoshlar, keng jamoatchilik vakillari jam bo'lgan adabiy-ma'rifiy tadbiri O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi,

O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid ochdi.

Tadbirda so'z olganlar ulug' shoirning ezguliklarga to'la hayoti, bebaho ijodiy vakillari jam bo'lgan adabiy-ma'rifiy tadbiri borasida fikr yuritdi, uning asarlari jahon



mamlakatlari va xalqlarining bebaho ma'naviy boyligiga aylanganini bot-bot ta'kidladi.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti hamda O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining mahalliy

va xorijiy talabalari o'zbek hamda turli xorijiy tillarda Alisher Navoiy she'rlaridan o'qidi. Buyuk shoir g'azaliga bastalangan maqom ashulalari yig'ilganlarga ko'tarinki shukuh ulashdi.



YOSHLAR – JAMIYATNING YARATUVCHAN KUCHI

Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida 6 – 9-fevral kunlari “Yoshlar fikri – parlament kuchi” shiori ostida “Parlament oromgohi” loyihasi o'quv seminarlari o'tkazildi.

Seminar

Uning ilk kunida Yoshlar parlamentining II yalpi yig'ilishi hamda loyiha o'chilish marosimi bo'lib o'tdi. Unda Yoshlar parlamenti a'zolarining kelgusi olti oylik faoliyat rejalari atroflicha muhokama qilinib, har bir yo'nalish bo'yicha aniq vazifalar belgilab olindi.

So'zga chiqqanlar yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qonun ijodkorligi va jamoatchilik nazoratiga keng jalb etish masalalariga to'xtaldi. Shuningdek, korupsiyaning oldini olishga qaratilgan “Aksilkorupsiya volontyorlik faoliyati”da Yoshlar parlamentining o'rni va vazifalariga alohida urg'u berildi.

Tadbir doirasida Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva “Parlament oromgohi” o'quv seminarida ishtirok etayotgan Yoshlar parlamenti a'zolari bilan uchrashuv o'tkazdi.

Yoshlarning mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlardagi o'rni va faolligini kuchaytirish, shuningdek, ularni qonun ijodkorligi jarayonlari, jamoatchilik nazorati hamda hududiy muammolari hal etishga keng jalb qilish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratildi.



Siyosiy partiyalar fraksiyalarida

MUNOZARALAR QIZG'IN, TAKLIF VA TAVSIYALAR ASOSLI

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning 2025-yildagi faoliyati to'g'risidagi ma'ruzasi ko'rib chiqildi.

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida dastlab davlatimiz rahbarining Pokiston Islom Respublikasi Bosh vazirining taklifiga binoan shu yil 5-6-fevral kunlari ushbu mamlakatga davlat tashrifining ahamiyati haqida so'z yuritildi. – Tashrif O'zbekiston – Pokiston strategik sherikligini mazmun jihatdan yangi bosqichga olib chiqdi, – dedi

fraksiya a'zosi Atham Nazirqulov. – Ayniqsa, muzokaralar yakunida imzolangan Qo'shma deklaratsiya va ustuvor yo'nalishlar bo'yicha 30 ga yaqin muhim hujjatlar bu hamkorlikning mustahkam huquqiy va amaliy asosini yaratdi. Erishilgan kelishuvlar nafaqat ikki mamlakat, balki butun Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasida barqarorlik, taraqqiyot va o'zaro bog'liqlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.



2026-YILDA

**“Raqamli starta-
plar” dasturi
kengaytirilib,
startap g'oyasidan
to eksportgacha
ko'maklashadigan
yangi tizim yo'lga
qo'yiladi.**

Bunda xususiy startap markazlarini tashkil etish uchun Yoshlar jamg'armasidan besh yil muddatga **5 milliard so'mgacha** foizsiz ssuda beriladi;

oliygohlarning o'zida qoladigan mablag'larning **10 foizi** ham inkubatsiya markazlarini rivojlantirishga yo'naltiriladi;



shu bilan birga, Markaziy bankda Moliyaviy texnologiyalar ofisi va Innovatsion xab tashkil etilib, unga Singapurdan mutaxassislar jalb qilinadi;

bu orqali yiliga 20 – 30 ta moliyaviy texnologiyalar startapini tashqi bozorga olib chiqish, ularga jami **1 milliard** dollar investitsiya jalb etish imkoniyati yaratiladi.

FAKT VA RAQAMLAR



YOSHLAR – JAMIYATNING YARATUVCHAN KUCHI



Senat huzuridagi Yoshlar parlamenti navqiron avlodning manfaatlarini ifodalash, taklif va tashabbuslarini tizimli ravishda shakllantirish, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilish va davlat dasturlarini takomillashtirishga yoshlarni jalb etish bo'yicha muhim institut sifatida faoliyat yuritmoqda. Shu bois Yoshlar parlamentining har bir a'zosi aniq vazifa va mas'uliyat asosida ish olib borishi zarurligi ta'kidlandi.

Yoshlar parlamenti a'zolariga qonunchilik jarayonida faol qatnashish, Senat qo'mitalari va mahalliy Kengashlar bilan hamkorlikni kengaytirish, hududlarda yoshlar muammolarini o'rganish hamda amaliy takliflar ishlab chiqish bo'yicha tavsiyalar berildi. Joylarda qonunlar va davlat dasturlarining ijrosini o'rganishga yoshlarni jalb etish muhimligi aytib o'tildi. Bundan tashqari, yigit-qizlar bandlegini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish, xotin-qizlarni "STEM" yo'nalishlariga keng jalb qilish, navqiron avlod o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish, korruptsiyaga qarshi kurashish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish masalalarida Yoshlar parlamenti a'zolarining o'rni alohida qayd etildi.

PARLAMENT DELEGATSIYASI VATANDOSHLAR HUZURIDA

Avval xabar qilganimizdek, senatorlar va Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlaridan iborat parlament delegatsiyasi AQShda bo'lib, okeanortida tahsil olayotgan va mehnat qilayotgan vatandoshlarimiz bilan uchrashuv o'tkazdi.

Muloqot

Unda vatandoshlarimizga mamlakatimizda so'ngi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar, Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasi hamda "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida xorijdagi fuqarolarimizni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar to'g'risida batafsil ma'lumot berildi.

Xususan, xorijda tahsil olayotgan va mehnat qilayotgan, shuningdek, murakkab

Shuningdek, mahalliy byudjetni shakllantirishda yoshlar manfaatlarini ko'zlab takliflar bildirish, eng muhimi, byudjet nazoratida faol ishtirok etish hamda yosh avlod orasida narkojinoyatlarga qarshi kurashish borasida targ'ibotni kuchaytirish yuzasidan aniq vazifalar belgilandi.

Yoshlarning parlamentga oid tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, xususan, 2026-yilda Samarqand shahrida o'tkazilishi rejalashtirilgan Yoshlar parlamentlari a'zolarining global konferensiyasini tashkil etish masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

O'quv seminarining ikkinchi kunida Senat a'zolari va yoshlar o'rtasida uchrashuvlar o'tkazildi. Unda senatorlar yoshlarga oid davlat siyosati borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, parlament nazorati hamda qonun ijodkorligi jarayoni to'g'risida ma'lumot berib o'tdi.

O'z navbatida, Yoshlar parlamenti vakillari oliy ta'lim muassasalarida sun'iy intellekt asoslari fanini joriy etish, xalqaro yoshlar tashkilotlari bilan aloqalar o'rnatish, yigit-qizlar bandlegini ta'minlash hamda velosporti ommalashtirish kabi takliflarni ilgari surdi.

"Xalq so'zi".

MUSTAHKAM RISHTAGA AYLANAYOTGAN DO'STONA ALOQALAR

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Pokiston Islom Respublikasiga davlat tashrifi mamlakatlarimiz o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlari yangi bosqichga ko'tarilishida muhim omil bo'ldi. Oliy darajadagi uchrashuvlar davomida 28 ta kelishuv va memorandum imzolandi. Xususan, O'zbekiston – Pokiston Ishbilarmonlik kengashini tuzishga kelishib olindi.

Munosabat

Shuningdek, konchilik, geologiya, chegirmalar va port xizmatlarini takdim etish, elektrotexnika, qishloq xo'jaligi tadqiqotlari, farmatsevtika, to'qimachilik, raqamli va axborot texnologiyalari, radiatsiya hamda yadro xavfsizligi yo'nalishlarida hamkorlik yo'lga qo'yiladi. Davlat tashrifi doirasida Islomobodda ikki mamlakatning 300 dan ortiq yetakchi sanoat korxonalari va savdo kompaniyalari, tarmoq tashkilotlari hamda ishlabarmonlik tuzilmalari vakillari ishtirokida uyushtirilgan biznes-forumda ko'plab shartnomalar imzolandi. Qisqasi, kelgusi besh yil ichida o'zaro savdo hajmini 2 mlrd. AQSh dollariga yetkazish

mo'ljallanmoqda. Ayni maqsadda 3,5 mlrd. dollarlik loyihalar portfeli shakllantirilgan.

Qolaversa, Pokiston – Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston yo'nalishida yuk tashish, Lahor va Islomobod shaharlariga aviaqatnovlarni yo'lga qo'yish, Transaf'gon temir yo'lini qurish loyihasiini hayotga tatbiq etish masalalari muhokama qilindi. Ya'ni okeanga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoniga ega bo'lmagan mamlakatimiz uchun Janubiy Osiyo bozoriga arzon va qulay transport yo'lagi ochiladi.

Ushbu loyihalar taqdiri global va mintaqaviy xavfsizlikka bevosita bog'liq. Shu ma'noda, Pokiston Prezidenti Asif Ali Zardoriy hamda ushbu mamlakatning Bosh vaziri Shahboz Sharif bilan kechgan

muloqotlar davomida ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish, Afg'onistonda barqarorlikni ta'minlash, mudofaa va xavfsizlik, xususan, harbiy texnika va qurol-yarog' ishlab chiqarish sohasida hamkorlikni kuchaytirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi.

Prezidentimiz Pokistonning Mudofaa kuchlari Oliy Bosh qo'mondoni – Qurolli Kuchlarning quruqlikdagi qo'shinlari qo'mondoni, feldmarshal Asim Munir bilan ham uchrashuv o'tkazdi. Bu jarayonda ikki mamlakatning yetakchi mudofaa sanoati korxonalari o'rtasidagi kooperatsiya aloqalarini foydalanish, harbiy mutaxassislarini tayyorlash dasturlarini kengaytirish, tajriba almashish va qo'shma o'quv tadbirlarini o'tkazish masalalari ko'rib chiqildi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, siyosiy, iqtisodiy yo'llar yoki ochiqdan-ochiq tajovuzkorlik orqali mamlakatlarni qaram qilishga urinishlar kuchaygan bir paytda



Prezidentimizning qator davlatlar bilan harbiy strategik hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan sa'y-harakatlari har jihatdan tahsinga loyiq. Zero, hamma davrlarda yurtning mudofaa salohiyati uning suvereniteti, tinchligi va taraqqiyotining kafolati bo'lgan.

Prezidentimizga ko'rsatilgan ehtirom barcha yurtdoshlarimiz qatorida kaminaga ham ulkan mamnunlik baxsh etdi. Jumladan, Prezidentimizga Pokistonning oliy davlat mukofoti – "Nishoni Pokiston" ordeni topshirildi. Davlatimiz rahbari Pokistonning yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan birining faxriy doktori va professori unvoniga sazovor bo'ldi. Qolaversa, Islomoboddagi ko'chalardan biriga Toshkent, Prezidentimiz tashabbusi

bilan barpo qilinadigan boqqa Zahiriddin Muhammad Bobur nomi beriladi. Buyuk boburiylar sulolasining ilmiy-ma'rifiy, madaniy va me'moriy merosini asrash, o'rganish hamda keng targ'ib qilish yo'nalishida tadbirlar ham amalga oshiriladi.

O'zbekiston va Pokiston o'rtasidagi do'stona aloqalar mustahkam rishtaga aylanmoqda. Mazkur hamkorlik nafaqat ikki mamlakat, balki Markaziy va Janubiy Osiyoni bog'lovchi ko'priq vazifasini o'tashni tayyorlaydi. Bu esa mazkur mintaqalarga izchil rivojlanish, davr chaqiriqlariga birgalikda munosib javob qaytarish salohiyatini baxsh etadi. Tabyiqlik, xalqaro maydonda erishilayotgan shu kabi yutuqlar zamirida Prezidentimizning oilona siyosati, Yangi O'zbekistonni qurishga qaratilgan ortga qaytmas islohotlar mujassami.

Nusuratulla PARDAEV, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Jizzax viloyati Kengashi raisi, senator.

AYOLLAR SALOHİYATI YUKSALMOQDA

Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi a'zosi Gulnora Ma'rufova "Kuch tuzilmalari tizimida oilalarning professional rivojlanishi va ilmiy yutuqlari" mavzuida tashkil etilgan tadbirda qatnashdi.

Tadbir

Mazkur tadbir 11-fevral – Ilm-fan sohasidagi ayollar va qizlar xalqaro kuni oldidan o'tkazilib, unda ayollarning kasbiy hamda ilmiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi faolligini oshirishga e'tibor qaratildi.

Unda jamoat arboblari, Milliy gvardiya tizimida xizmat qilayotgan ayol harbiy xizmatchilar, jamoat xavfsizligi universitetining kursant qizlari, "Temurbeklar maktabi" hamda Harbiy musiqlik akademiyasi litseyi o'quvchi-qizlari, shuningdek, Xususan, xorijda tahsil olayotgan va mehnat qilayotgan vatandoshlarimiz bilan uchrashuv o'tkazdi.

So'zga chiqqanlar ayollarning jamiyat, fan va ta'lim sohasidagi o'rni, ular uchun yaratilayotgan imkoniyatlar hamda erishilayotgan yutuqlar xususida fikr bildirdi. Ayniqsa, Milliy gvardiya tizimida faoliyat yuritayotgan ayollarning kasbiy mahorati va ilmiy salohiyati yuksak baholandi.

Shuningdek, ishtirokchilarga gender tenglik, kasbiy o'sish va ilmiy izlanishlar borasida ayollar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar haqida batafsil tushuntirishlar berildi.

Tadbirda videoroliklar orqali Milliy gvardiya tizimidagi ayol harbiy xizmatchilarning faoliyati va erishgan yutuqlari namoyish etildi.

"Xalq so'zi".

MUNOZARALAR QIZG'IN, TAKLIF VA TAVSIYALAR ASOSLI



Yig'ilishda fraksiya a'zolari fuqarolar hamda tadbirkorlik subyektlari uchun sudlarga murojaat etishda yanada qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qonun loyihasini muhokama qildi.

U bilan Jinoyat-protsessual va Iqtisodiy protsessual kodekslarga, Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksiga, shuningdek, "Sudlar to'g'risida"gi hamda "Davlat boji to'g'risida"gi qonunlarga qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Xususan, ma'muriy sud ishlarini yuritishda huquqi buzilgan shaxsning tanloviga ko'ra, iqtisodiy sud ishlarini yuritishda esa tarafdorlarning kelishuviga asosan ekstritorial sudlov mexanizmini joriy qilish taklif etilmoqda. Bunda ishni ekstritorial tartibda ko'radigan sud avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali belgilanishi ko'zda tutilgan.

Fraksiya a'zosi, qonun loyihasiga mas'ul deputat Oybek Yo'ldoshevning aytishicha, loyiha bilan iqtisodiy sudlar tuzilmasini optimallashtirish orqali ular faoliyati samaradorligini oshirish hamda yagona sud amaliyotini shakllantirish ham maqsad qilingan. Buning doirasida tumanlararo, tuman va shahar iqtisodiy sudlari tugatilib Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri hamda viloyat markazlarida tumanlararo iqtisodiy sudlar faoliyatini yo'lga qo'yish belgilanmoqda.

Deputatlar qonun loyihasining qabul qilinishi sudga murojaat etishdagi ortiqcha ovoragarchiliklarni kamaytirish, korruptsiyaviy omillarni bartaraf etish, sud qarorlari sifatini samaradorligini oshirishda muhim o'rinni tutishni e'tiborga olib, uni qo'llab-quvvatlash.

"Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta'sirga ega moddalarning noqonuniy muomalasi uchun javobgarlikni takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi muhokama qilindi.

Yig'ilishda so'ngi yillarda giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta'sir etuvchi moddalarning qonunga xilof muomalasiga qarshi tizimli choralar ko'rilayotganiga qaramay, bu boradagi jinoyatlar soni oshib borayotgani ta'kidlanib, ayrim raqamlar keltirildi. Bu esa, o'z navbatida, qonunchilikka

o'zgartirish hamda qo'shimchalar kiritishni taqozo qiladi.

Shu maqsadda ishlab chiqilgan qonun loyihasi bilan Jinoyat, Jinoyat-protsessual hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarga qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklif etilmoqda.

Xususan, Jinoyat kodeksidagi giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, bundan tashqari, kuchli ta'sir kuchiga ega yoki zaharli moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan



iborat jinoyatlar aholi salomatligi va genofondiga qarshi jinoyatlar sifatida alohida bobga birlashtirilmoqda.

Shuningdek, Jinoyat kodeksidagi mazkur bobda narkotiklarning noqonuniy muomalasiga hokimiyat (mansab) vakolatlarini suiste'mol qilish yo'li bilan homiylik (rahnamolik) ko'rsatish hamda g'ayriqonuniy narkolaboratoriya tashkil etish va uning faoliyat yuritishini ta'minlash kabi qilmishlar uchun jinoyi javobgarlikni nazarda tutuvchi yangi normalar belgilanmoqda.

Muhokamada qonun loyihasining qabul qilinishi aholi salomatligini muhofazalash, millat genofondini asrash, shuningdek, giyohvandlik moddalarning qonunga xilof muomalasini cheklashga yo'l ochishi qayd etildi.

Deputat Dilnoza Afzizova yig'ilishda Jinoyat kodeksi millat genofondi bilan bog'liq alohida bo'lim bilan to'ldirilayotgani fraksiya a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlangani

bildirdi. Millat genofondi himoyasi partiya uchun eng ustuvor masala hisoblanishi, shu bois aholi o'rtasida ushbu hujjatning mazmun-mohiyati bo'yicha ko'proq targ'ibot-tashviqot ishlarida faol bo'lish lozimligi aytiladi.

"Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida Prezidentimizning "Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san'at homiysi Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690-yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarorining mazmun-mohiyati haqida so'z yuritildi.

Mazkur hujjat yosh avlod tarbiyasida yangi imkoniyatlar eishigini ochishi aytilib, har yili aprelda "Amir Temur oyligi"ni o'tkazish tashabbusi xalqimizda tarixiy ongini yuksaltirish, o'quvchi va talaba yoshlar qalbidagi milliy g'urur hamda mas'uliyat tuyg'usini kuchaytirishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Shundan so'ng fraksiya a'zolari elektron tijorat sohasini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasini ko'rib chiqdi.

Ma'lum qilinganidek, ushbu qonun loyihasi elektron tijoratning shaffof va ochiq ekotizimini yaratish, elektron tijorat platformalarini va servislarini jadal rivojlantirishga qaratilgan.

Qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida elektron tijorat sohasidagi iste'molchilar muomalasiga kirib borayotgan yangi yo'nalishlar – elektron savdo platformasi, buyurtmalar agregatori va raqamli striming xizmati hamda ularning operatorlari tushunchalari aniqlashtirilgan. Shuningdek, transchegaraviy elektron tijorat atamasiga ta'rif berilib, uning tartib-taomillarini ishlab chiqish zarurligi to'g'risidagi qoidalar kiritilgan.

Ushbu qonun loyihasida elektron tijorat bilan bog'liq xizmat ko'rsatish va savdo munosabatlari iste'molchilarga tanlash jarayonida shaffoflikni ta'minlash hamda ular manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan qator o'zgartirishlar kiritildi, – dedi fraksiya a'zosi Behzod To'xtamurodov. – Xususan, elektron tijorat operatorlariga iste'molchilar



orttirilgan boylik esa jamiyatda adolatsizlikni kuchaytiradi. Ushbu qarashlar bugungi zamonaviy tadbirkorlikning ham eng muhim jihati hisoblanadi.

Alisher Navoiy o'z asarlarida savdogarlar obraziga murojaat etar ekan, ular orqali savdoni jamiyat iqtisodiy hayotining muhim bo'g'ini sifatida baholaydi. Biroq u faqatgina foyda o'tirtirishni maqsad qilgan, odamlarni aldash orqali boyishni tanlagan savdogarlarni qattiq tanqid ostiga oladi, haqiqiy tadbirkor halollik, rostg'oylik

va insof bilan ish yuritishi kerakligini ta'kidlaydi. Bu masala nafaqat iqtisodiy, balki axloqiy ahamiyatga ham ega bo'lib, adolatli savdo jamiyatda ishonchni mustahkamlashi, ishonch esa iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri ekanini uqtiradi.

Buyuk bobomiz tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy mas'uliyatiga katta ahamiyat berib, boylik shaxsiy manfaat uchun emas, balki jamiyat farovonligi yo'lida xizmat qilishi kerak deb hisoblaydi va o'zi ham amalda shaxsiy mablag'lari hisobiga madrasa, masjid, shifoxona, karvonsaroy va ko'priklar qurdiradi. Ko'rinadiki, u boylikni "omona" sifatida tasarruf etgan va uni xalq manfaati uchun sarflashni insonning ma'naviy burchi deb bilgan. Shu bilan birga, Alisher Navoiy davlat arbobi sifatida ham iqtisodiy masalalarga bema'or murojaat etgan va amaldorlarni adolatli bo'lishga, soliq siyosatida tadbirkor manfaatini inobatga olishga chaqirgan. Zero, tadbirkorlik muhiti davlat tomonidan yaratilgan shart-sharoitlarga bog'liq ekanini u yaxshi anglagan.

Ulug' mutafakkirning tadbirkorlik borasidagi qarashlari chuqur axloqiy va

ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, tadbirkorlikni halol mehnat, adolatli savdo va jamiyat farovonligi bilan uzviy bog'liq holda talqin qiladi. Mazkur g'oyalar nafaqat o'z davri uchun, balki bugungi zamon iqtisodiy munosabatlari uchun ham qimmatli ilmiy-ma'naviy meros hisoblanadi. Shu bois uning asarlarini iqtisodiy tafakkur nuqtayi nazaridan o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lami islohotlar doirasida eksport hajmini oshirish, yangi brendlar yaratish, startaplarni moliyalashtirish, tadbirkorlikni raqamlashtirish, soliq rejimi va huquqiy mexanizmlar orqali ularni qo'llab-quvvatlashga alohida urg'u berilmoqda. Bu, hech shubha yo'qki, davlatimiz siyosati ulug' bobomizning adolat va mas'uliyat nuqtayi nazaridan talqin qilgan qarashlari bilan tamomila uyg'unligini ko'rsatadi.

Rahmatillo SHUKUROV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qo'mitasi a'zosi.



Fraksiya yetakchisi Ulug'bek Inoyatov kiritilgan o'zgartirishlar qonun loyihasining umumiy konsepsiyasiga qay darajada ta'sir ko'rsatishi masalasini ko'tardi. Tashabbuskorlar tomonidan loyiha ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida qo'mita bilan yaqin hamkorlikda ishlangani va taklif etilgan tahrirlar bo'yicha prinsipial e'tirozlar yo'qligi ma'lum qilindi.

Shuningdek, yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning 2025-yildagi faoliyati to'g'risidagi ma'ruzasi ko'rib chiqildi. Ma'ruzada inson huquqlarini ta'minlash borasida davlat organlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar, fuqarolar murojaatlari bilan ishlash holati hamda tizimda mavjud ayrim muammolar tahlil qilingani qayd etildi.

Muxolifat fraksiyasi a'zolari mazkur hujjatda ayrim masalalar yetarli darajada ochib berilmaganini bildirib, qator taklif

va mulohazalarni ilgari surdi. Shu bilan birga, Ombudsman kelib tushayotgan murojaatlar soni ortib borayotgani, ularning tizimli tahlili yo'lga qo'yilgani va mazkur institutning jamiyat hayotidagi o'rni tobora mustahkamlanayotgani ta'kidlandi.

Yig'ilish yakunida kun tartibidagi masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida dastlab, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning 2025-yildagi faoliyati to'g'risidagi ma'ruzasi ko'rib chiqildi.

OʻZARO HURMAT VA ISHONCH – IKKI QARDOSH DAVLAT OʻRTASIDAGI KOʻPRIK

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning yaqinda Turkiyaga rasmiy tashrifi butun dunyoda katta aks sado berdi. Siyosatchilar, soha ekspertlari va mutaxassislari, ziyolilar ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar orqali ushbu voqeikka oʻz munosabatini bildirmoqda. Qarashlar turfa xil, albatta. Lekin ularning aksariyatida mazkur tashrif Oʻzbekiston – Turkiya keng qamrovli strategik sherikligi yangi bosqichga chiqqanining ifodasi ekani taʼkidlanmoqda.

Mushohada

Darhaqiqat, ikki qardosh mamlakat oʻrtasidagi munosabatlar jadal surʼatlarda rivojlanyapti. Bu haqda Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Anqara shahrida boʻlib oʻtgan oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining toʻrtinchi yigʻilishi yakunlari yuzasidan ommaviy axborot vositalari vakillari uchun bergan bayonotida qayd etdi.

Davlatimiz rahbarining soʻzlariga koʻra, kengash doirasida oʻtkazilgan muzokaralar, shuningdek, gumanitar sohadagi qoʻshma loyihalar tarixiy ahamiyatga ega.

Ikki xalqning maʼnaviy yaqinligi haqida gapirar ekan, xalq maqolini esladi: “Dillar bir boʻlganda yoʻllar

qisqaradi. Bizning tilimiz bir, dilimiz bir, niyatimiz ham bir”.

– Ona tilimiz va muqaddas dinimiz yaqinligi bois qardosh turk va oʻzbek xalqlarini hech qanday masofa ajrata olmaydi, – dedi Prezidentimiz.

Bu soʻzlar oddiy diplomatik takalluf emas. Mazkur iboralar ikki davlat munosabatlari taʼriflovchi rasmiy formulalar ham emas. Bu soʻzlar – ikki qardosh xalq oʻrtasida shakllangan umumiy taqdir ongining davlat darajasida eʼlon qilinishidir.

Bugun Turkiyaning dunyodagi tutgan oʻrni Oʻzbekistonda diqqat bilan kuzatilmoqda. Buning sababi – Turkiya jahonda oʻz yoʻlini izlar ekan, qudratli aktor davlatlarning “roziligi”ga suyanmagan holda qaror qabul qilayotganidir. Oʻz ahdini



oʻzi belgilaydigan va buning uchun javobgarlikni zimmasiga olgan har bir davlat Oʻzbekiston xalqining hurmatini qozonadi.

Biz, oʻzbeklar uchun Turkiya boshqa bir davlat boʻlishi mumkin, ammo u hech qachon begona boʻlmagan. Shu bilan birga, oʻzimizni boshqa bir kimlik ichida “eritish” zaruratini ham sezmaymiz. Biz – oʻzbekmiz. Oʻz taraqqiyot yoʻliga ega, oʻz tili, tarixi va davlat anʼanalari boʻlgan Oʻzbekistomiz. Turkiya esa biz uchun bir ildizdan oziqlangan, ammo tarixning boshqa yoʻlida kamol topgan qardosh bir davlat.

Shu bois oʻzaro munosabatlar faqat tarixiy yaqinlik ustiga emas, bugun bir-birimizni qanday angelayotganimiz, qadrlayotganimiz, oʻzaro hurmat, sadoqat, har qanday vaziyatda yonma-yon tura olish tamoyillariga asoslanmoqda.

Xalqlarimiz oʻrtasidagi bunday samimiy munosabat hayotiy sinovdan oʻtgan. Jumladan, Turkiyada yuz bergan vayronkor zilzila oqibatlarini bartaraf etish, hududni tiklashga Oʻzbekiston katta hissa qoʻshdi. Hatay viloyatida alohida turarjoy majmuasi barpo qilindi. Shuningdek, taʼlim, sogʻliqni saqlash, ilm-fan, texnologiya va boshqa sohalarida tenglik asosida yoʻlga qoʻyilgan hamkorliklar bu munosabatning eng mustahkam kafolatidir.

Qadim Turkiston bilan Anadoʻlu oʻrtasidagi eng mustahkam koʻpriklar umumiy akademik tafakkurdir. Qoʻshma tibbiy dasturlar, birgalikdagi ilmiy-tadqiqot markazlari, olimlarning erkin harakati bu qardoshlikni

romantik tushunchadan strategik darajaga olib chiqadi. Samarqanddagi bir olim bilan Anqaradagi bir akademikning yonma-yon, teng hamkor sifatida ishlashi – mudofaa yoki savdo kabi muhim masala.

Oʻzbekiston yosh davlat, ammo xotirasi qadimdir. Mustaqillikdan keyingi davrning barcha sinovlarini boshdan kechirgan, shunga qaramay oʻzligini saqlab qolgan davlatdir. Bugun taraqqiyotning yangi davrida odimlar ekanmiz, yoʻl koʻrsatuvchi izlamayapmiz. Biz hurmatga asoslangan doʻstlikka suyanapmiz. Turkiya bu borada ishonchli hamkorlarimizdan biridir.

Turkiya yaxshi anglaydi: Oʻzbekiston faqat tarixiy xotira emas, Markaziy Osiyoning yuragida mustahkam qad rostlayotgan, oʻz oyoqlari ustida turgan mintaqaviy kuchdir. Bu anglashuv ikki qardosh davlat oʻrtasidagi koʻpriklarni yanada mustahkamlaydi.

Jasur RIZAYEV,
Samarqand davlat tibbiyot
universiteti rektori, professor.

Xalid Taymur AKRAM:

OʻZBEKISTON YETAKCHISINING TASHRIFI POKISTONLIK UCHUN MUHIM AHAMIYATGA EGA TARIXIY VOQEADIR

Pokistonning “Umumiy kelajak jamiyati” tahlil markazi rahbari Xalid Taymur Akram “Dunyo” AA uchun Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning shu yil 5-6-fevral kunlari Islomobodga amalga oshirgan davlat tashrifi yakunlari boʻyicha fikr bildirdi:

Aks sado

– Oʻzbekiston Prezidentining Pokistonga davlat tashrifi biz, pokistonliklar uchun alohida ahamiyatga ega tarixiy voqeadir. Bu tashrifni faqat rasmiy diplomatik protokol doirasidagi tadbir deb emas, balki umumiy tarix, mushtarak madaniy qadriyatlar va asrlar davomida shakllangan samimiy birodarlik munosabatlari bilan bogʻlangan yaqin doʻstning tashrifi sifatida qabul qilindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev shaxsi Pokiston jamoatchiligi uchun ham Oʻzbekiston rahbari, ham mintaqaviy barqarorlik, ochiq muloqot va oʻzaro ishonchga asoslangan siyosatni ilgari surayotgan davlat arbobi oʻlaroq yaxshi tanish. Shu maʼnoda, mazkur tashrif ikki tomonlama munosabatlarni yangi sifat bosqichiga olib chiqishga qaratilgan muhim qadam boʻldi.

Pokiston Bosh vaziri Shahboz Sharif, Prezident Asif Ali Zardoriy hamda boshqa yuqori martabali rasmiy shaxslar bilan boʻlib oʻtgan muzokaralar juda mazmunli, oʻzaro ishonch va konstruktiv ruhda kechdi. Uchrashuvlar davomida siyosiy muloqotni yanada chuqurlashtirish, savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, transport-logistika bogʻliqlikni mustahkamlash va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan qator muhim kelishuvlarga erishildi.

Ayniqsa, Oʻzbekiston – Pokiston biznes forumida Prezident Shavkat Mirziyoyevning nutqi alohida eʼtiborga sazovor boʻldi. Davlatimiz rahbari farmatsevtika, qishloq xoʻjaligi, toʻqimachilik va charam sanoati, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash, energetika hamda logistika sohalarida qoʻshma loyihalarni amalga oshirish boʻyicha aniq va amaliy takliflarni ilgari surdi. Pokistonlik investorlar uchun yaratilayotgan qulay investitsiya muhiti, soliq va bojxona imtiyozlari haqida batafsil maʼlumot berildi.

Ishonchim komilki, ushbu imkoniyatlar pokistonlik ishbiarmon doiralari tomonidan faol tarzda qoʻllab-quvvatlanadi. Chunki Pokiston tomoni Oʻzbekiston bilan yaqin doʻstona munosabatlarni mustahkamlash, oʻzaro savdo hajmini oshirish va iqtisodiy sheriklikni strategik darajaga koʻtarishdan nihoyatda manfaatdor.

Prezident Shavkat Mirziyoyev soʻnggi yillarda Oʻzbekistonni modernizatsiya qilish, ochiq va raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish hamda davlat boshqaruvini isloh etish boʻyicha aniq, izchil, pragmatik yoʻlni belgilab berdi. Bugun Oʻzbekiston, haqiqatan ham, xorijiy investorlar, sayyohlar va xalqaro hamjamiyat vakillari ishonch bilan qarayotgan, hamkorlikka intilgan davlatga aylanadi.

Markaziy Osiyo mintaqasida Oʻzbekiston oʻzining aniq strategik qarashi, qoʻshni davlatlar bilan oʻzaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan faol siyosati hamda mintaqaviy barqarorlik va taraqqiyotga qoʻshayotgan hisssasi bilan yetakchi oʻrinni mustahkamlab bormoqda. Bu Pokiston uchun ham Oʻzbekistonni ishonchli va uzoq muddatli strategik sherik sifatida koʻrish imkonini yanada oshiradi.

Umid qilamanki, Pokiston kelgusida ham Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan keng koʻlamli islohotlarni qoʻllab-quvvatlab, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va gumanitar sohalarida ishonchli hamkor boʻlib qoladi. Oʻzaro hurmat, ishonch va manfaatlar uygʻunligiga asoslangan Oʻzbekiston – Pokiston munosabatlari kelgusi yillarda yanada yuksak bosqichga koʻtarilishi, shubhasiz.

“Dunyo” AA.
Islomobod

MILLAT TARAQQIYOTINI KOʻZLAB

Avlodlar oʻrtasidagi bogʻliqlik oddiy urf-odat emas, balki millat taraqqiyoti va kelajak istiqbolini taʼminlaydigan mustahkam tayanchdir. Tajriba, ilm-fan hamda yoshlik gʻayrati bir nuqtada jam boʻlgan lahzalarda yuksak marralar koʻzda tutiladi, ezgu tashabbuslar shakllanib, katta orzular roʻyobi sari yoʻl oladi.



Uchrashuv

Ana shunday maʼnaviy muhit hamda yuksak gʻoya Toshkent davlat agrar universitetida oʻtkazilgan “Uch avlod uchrashuvi” madaniy-maʼrifiy tadbirida oʻzining yorqin ifodasini topdi.

“Nuroni” jamgʻarmasi Respublika boshqaruvi raisi, Oʻzbekiston Qahramoni, senator S. Turdiyev, Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti, Oʻzbekiston Qahramoni, senator Sh. Ayupov, professor-oʻqituvchilar, doktorantlar,

magistrlar hamda talaba-yoshlar qatnashgan ushbu tadbirda dastlab universitetning sanʼat galereyasi hamda “Ona siyosi” koʻrgazmasi bilan tanishildi.

Shundan soʻng mazkur universitet rektori N. Oblumurodov tadbirning mohiyati haqida toʻxtalib, “Uch avlod uchrashuvi” yoshlar uchun muhim ahamiyat kasb etishi,

Vatanga sadoqat hamda ilm-maʼrifatga boʻlgan qiziqishini yanada oshirishda alohida oʻrin tutishini taʼkidladi.

Tadbir davomida Oʻzbekiston Qahramonlari

oʻzlarining hayotiy yoʻllari, ilmiy izlanishlari, Yangi Oʻzbekiston sharoitida yoshlarga berilayotgan keng koʻlamli imkoniyatlardan toʻgʻri foydalanish naqadar muhimligi haqida alohida toʻxtaldi. Jumladan, universitet yoshlari ilmiy, maʼrifatli boʻlib kamol topishlari uchun yurtimizda yaratilgan shart-sharoitlardan oqilona foydalangan holda yuqori natijalarni qoʻlga kiritayotgani eʼtirof etildi. Maʼruzalar davomida talabalar qiziqtirgan savollariga batafsil javob olish bilan birga, nuroniy ustozlar va iqtidorli

yoshlarning fikrlari tadbirga yanada mazmun bagʻishladi. Yakunda universitet rahbariyati tomonidan Oʻzbekiston Qahramonlariga universitet tarixi hamda bugungi kundagi faoliyatiga bagʻishlangan “Zamin bilan tutash taqdirlar” kitobi taqdim etildi. Oʻz navbatida, Oʻzbekiston faxriylarini ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash “Nuroni” jamgʻarmasi tomonidan talabalarga kitoblarni topshirildi.

Toʻlqin ABDURAYIMOV,
Toshkent davlat
agrar universiteti masʼul
xodimi.

ZARDARYO – “YASHIL” ENERGIYA MANBAI

Muqobil elektr quvvati ishlab chiqarish borasidagi izlanishlar Mingbuloq tumanida faoliyat koʻrsatayotgan “Rah Abrisham trade” masʼuliyati cheklangan jamiyati shaklidagi qoʻshma korxonada yangi tarmoqni yoʻlga qoʻyish imkonini berdi. Tadbirkorlik subyekti hududdan oqib oʻtgan Zardaryo kanalining maxsus toʻsiq bilan jihozlangan qismiga Erondan keltirilgan kichik hajmli gidroelektrostansiyani oʻrnatish orqali “yashil” energiya ishlab chiqarishga kirishdi.

Imkoniyat

– Xorijlik mutaxassislar yordamida ishga tushirilgan qurilma bir kecha-kunduzda ortiqcha xarajatlarsiz 30 kilovatt-soat quvvat hosil qiladi, – deydi qoʻshma korxona ish

boshqaruvchisi Muhammadsoli Ahmadaliyev. – MiniGES ayni paytda sinov tariqasida ishlamoqda. Unga qoʻshimcha uzatish uskunalari oʻrnatilgandan soʻng oqar sudvan olingan quvvatlar hisobiga oyiga 21600 kilovatt ekologik sof energiya



asosiy tarmoqqa yuborila boshlaydi.

Mulkobod mahallasida roʻyobga chiqarilgan ushbu loyiha hududdagi tadbirkorlarga har jihatdan maʼqul tushdi. Ularim bir nechtasi Zardaryo kanalining tezoqar qismlarida shu singari arzon va qulay kichik energoqurilmalar oʻrnatishga qiziqish bildirmoqda.

Qudratilla NAJMIDDINOV
(“Xalq soʻzi”).

REKLAMA

QIZIQISH BILDIRISHGA SOʻROV

“Oʻzbekistonda raqamli inklyuzivlik” loyihasi

Kredit raqami: 7425-UZ

Xizmat tavsifi: “Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi” MChJ “Oʻzbekistonda raqamli inklyuzivlik” loyihasi doirasida, “UZ-DIP-535400-CS-INDV – qonun loyihasini ishlab chiqish” xizmatlari uchun xalqaro malakali individual konsultantlarni qiziqish bildirishga taklif etadi.

Qiziqish bildirishning oxirgi muddati:

2026-yil 20-fevral, soat 18:00.

Batafsil maʼlumot uchun: udip@it-park.uz, 71-209-11-99 (1037).

“Elektron Realtor” MChJ



toʻgʻridan-toʻgʻri muzokaralar olib borish yoʻli bilan tashkillashtiriladigan koʻchmas mulklar va ularga boʻlgan huquqlar boʻyicha oʻtkaziladigan savdoga taklif etadi

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-apreldagi PQ-142-sonli qaroriga asosan “Oʻzsanoatqurilishbank” ATB balansida boʻlgan:

Surxondaryo viloyati, Oltinsoy tumani, “Mingchinor” MFY, Istiqloq koʻchasi, 3-uyda joylashgan issiqxona va dala shiyponi binolari sotiladi.

Sotish sharti va narxi bilan “www.e-rieltor.uz” sayti orqali tanishish mumkin.

Savdoga qoʻyilgan mulklarni bevosita joyiga chiqib koʻrish imkoniyati mavjud.

Savdoda ishtirok etish uchun talabgorlar “e-rieltor.uz” platformasi orqali ariza beradi.

Call-markaz: +99855-517-22-20.

Rasmiy saytimiz:
“www.e-rieltor.uz”



KOINOTDA G'AROYIB SHAHAR QURILADI

Amerikalik milliarder Ilon Mask Oyda ilk shahar 10 yildan kam muddat ichida paydo boʻlishi mumkinligini maʼlum qildi.

“SpaceX” rahbarining aytishicha, kompaniya ushbu maqsadni oʻzi uchun eng ustuvor vazifalardan biri deb biladi.

“SpaceX” oʻz eʼtiborini Oyda oʻz-oʻzini rivojlantirish oladigan shahar qurishga qaratdi. Chunki bu maqsadga 10 yildan kam vaqt ichida yetishishimiz mumkin. Mars holatida esa bunga 20 yildan ortiq vaqt talab etiladi”, dedi tadbirkor.

Maskning qoʻshimcha qilishicha, Marsga parvoz qilish imkoniyati har 26 oyda bir marta yaratiladi va sayohat taxminan yarim yil davom etadi. Oyga esa har 10 kunda bir marta parvoz uyushtirilib, safar muddati ikki kunni tashkil qiladi.

ZARARLI KONTENT OTA XAVFLI

Internetda sunʼiy intellekt tomonidan yaratilayotgan zararli kontentlar soni ortib borayotgani munosabati bilan BMT tuzilmalari bolalarni zoʻravonlik, ekspluatatsiya va ruhiy jarohatlardan himoya qilish uchun zudlik bilan choralar koʻrishga chaqirdi.

Xalqaro elektraloqa ittifoqining Elektraloqa rivoji byurosi direktori Kosmas Zavazava bolalar duch kelayotgan tahdidlarning keng doirasi mavjudligini maʼlum qildi. Bolalar himoyasi boʻyicha ishlovchi tashkilotlar maʼlumotiga koʻra, jinoyatchilar sunʼiy intellektdan bolaning internetdagi xatti-harakatlari, hayajonli holati va qiziqishini bilish uchun foydalanishi, shundan soʻng uni boshqarish strategiyasini ishlab chiqishi mumkin.

Taʼkidlash joizki, joriy yil avvalida bolalar huquqlarini himoya qilish bilan shugʻullanuvchi BMT tuzilmalari “Sunʼiy intellekt va bola huquqlari” boʻyicha qoʻshma bayonotni imzolagan edi. Unda aytilishicha, bu borada jiddiy xavflar mavjud. Shu bois tartibga solish uchun koʻproq amaliy yoʻriqnomalarni zarur.

CHOʻL BOʻSTONGA AYLANADI

Ar-Riyod yaqinida ochilgan “Six Flags Qiddiya City” dam olish bogʻi “Qiddiya” loyihasining bir qismi boʻlib, uning maqsadi Arabiston choʻlining katta hududini dunyodagi eng yirik koʻngilochar va turizm markazlaridan biriga aylantirishdan iborat.

Kelajakda bu yerda kibersport arenasi, stadion va akvapark ham boʻlishi rejalashtirilgan. 32 gektar maydonni egallagan “Six Flags Qiddiya City” – “Six Flags” tarmogʻining Shimoliy Amerikadan tashqarida qurilgan ilk majmuasi boʻlib, uni qurish qariyb toʻrt yil davom etdi.

Saudiya Arabistoniga oid yana bir yangilik. Podshohlikda balandligi 2 ming metrga yetadigan “Rise Tower” minorasi qurilishi rejalashtirilyapti. “Time Out Dubai” nashrining xabariga koʻra, minora Dubayda joylashgan “Burj Khalifa”dan ikki barobar baland boʻladi. Majmua 678 qavatdan iborat boʻlib, undan hashamatli mehmonxonalar, restoranlar hamda zamonaviy biznes markazlari joy oladi.

KUBADA ANOMAL SOVUQ

Mamlakat milliy meteorologiya instituti mutaxassislari xabar berishicha, bu rekord koʻrsatkich 3-fevral kuni soat 07:00 da mamlakat gʻarbidagi Matansas viloyatida qayd etildi. Bundan avval “sovuq rekord” 1996-yil fevralda roʻyxatga olingan edi. Oʻshanda harorat 0,6 darajagacha pasaygan.

Meteorologlarning aytishicha, anomal sovuqqa Shimoliy Amerikadan kirib kelgan kuchli arktik havo oqimi sabab boʻlgan. Juda quruq havo, ochiq osmon va shamolning yoʻqligi tufayli harorat keskin pasaygan.

Kuzatilgan bu yilgi sovuq harorat nafaqat Kuba, balki Markaziy Amerika va Karib havzasining boshqa mamlakatlarida ham rekord koʻrsatkichlarni yangiladi.

Maʼlumot oʻrnida aytish joiz, Kuba tropik iqlim zonasida joylashgan boʻlib, qishda havo harorati oʻrtacha 23-24, yozda 27 – 30 darajani tashkil etadi.

Internet xabarlari asosida
Sharofiddin TOʻLAGANOV
(“Xalq soʻzi”) tayyorladi.

SO'Z MULKINING SULTONIGA EHTIROM

➡ Ta'kidlash joizki, o'zining nodir asarlari va yuksak insoniy xislatlari bilan bashariyatni asrlar davomida adolat, komillik, ezigulik singari oliyyanob fazilatlariga chorlab kelayotgan ulug' bobokalonimiz nafaqat xalqimiz, balki dunyo ahli tomonidan ayrica mehru muhabbat bilan e'zozlab kelinadi. Xususan, o'tgan yili O'sh shahrida Alisher Navoiy haykali qurilgani, shoir asarlari italyan tilida chop etilgani so'zimizning tasdig'idir.

Dunyo ahli bugun-bugungacha hazrat Navoiyning serqirra ijodi va ibratli hayot yo'lini katta qiziqish bilan o'rganadi, manguilikka daxldor fikr va g'oyalardan bahra oladi. Zero, uning siyмосi shoir-yozuvchilar va adabiyot muhirlari uchun so'z mulkining sultoni, olimu fuzalolar uchun tengsiz mutafakkir, davlat qizmatchilari uchun mohir davlat arbobi, yoshlar uchun ma'naviy komillik sari yetaklaydigan ustoz, keksalar uchun esa sodiq maslakdosh o'laroq hamisha hamrohdur.

— Alisher Navoiy atoqli shoir, xalq manfaatlarini barcha narsadan ustun qo'ygan davlat arbobi o'laroq yashab faoliyat yuritgan buyuk shaxsdir, — deydi Alisher Navoiy fondi direktori Olimjon Davlatov. — Ul zotning asarlarida targ'ib



Akmal MUHAMMADOV olgan suratlari.

etilgan insonparvarlik, adolat, vatanparvarlik va komil inson g'oyalari nafaqat biz, balki barcha davrlar uchun ham ahamiyatli. Ayniqsa, shoirning nafis g'azalu dostonlarida tarannum etilgan qarashlar yosh avlod tarbiyasida muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda, desak, mubolag'a emas.

Ma'rifiy-badiiy dastur yakunida keng jamoatchilik ishtirokida Alisher Navoiy haykali poyiga gul qo'yish marosimi o'tkazildi.

Shundan so'ng navoiyxonlik kechalari Adiblar xiyobonidagi

atoqli adiblarning haykallari poyida yozuvchi va shoirlar, oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari hamda talabalar ishtirokidagi adabiyot va kitobxonlik tadbirlariga ulandi.

Tantanalı tadbırda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi — Spichrayteri Xayriddin Sultonov, O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining Alisher Navoiy haykali poyiga gul qo'yish marosimi o'tkazildi.

Shundan so'ng navoiyxonlik kechalari Adiblar xiyobonidagi

“Xalq so'zi”.

E'tirof

Alisher Navoiyning betakror ijodiy merosi asrlar osha sevib mutolaa qilinayotgani, fusunkor kalomlar ila boyitilgan kitoblari qo'ldan-qo'lga, dildan-dilga o'tayotgani, shuningdek, dunyoning tiyrak nazarli olimlari tomonidan qayta-qayta o'rganilayotgani bejiz emas. Ulug' mutafakkir dahosi bashariyat ahliga ezigulik, yuksak insoniy fazilatlar, so'nmas muhabbatu mehr saboqlarini berib kelmoqda.

Yashar QOSIM:

MUAZZAM ZAMON HAR LAHZADA MUTAFAKKIR HIKMATLARI HAYOTIYLIGINI TASDIQLAB KELMOQDA

— Nainki o'tgan besh asr, balki Alisher Navoiy hayotlik chog'idayoq uning ijodini targ'ib qilganlar, ustoz san'atkorga nazira bitganlar, asarlarini turli tazzikirlaru bayozlarga kiritganlar ko'p bo'lgan, — deydi ozarbayonlik olim, filologiya fanlari doktori, professor Yashar QOSIM. — XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlariga kelib esa rus sharqshunoslari, turkologlari va Sharq adabiyoti bo'yicha boshqa mutaxassislar Navoiy asarlariga muntazam murojaat etib, uning “Xamsa”sini, asosan, qiyosiy adabiyotshunoslik kontekstida tahlil qilgan. Olimlarning adabiy-nazariy tahlillarida shoir ijodining ko'plab xususiyatlari va fazilatları alohida qayd etilgan.

Mutafakkirning nihoyatda mashaqqatli mehnati turkiy adabiy tilning shakllanishi va takomillashuviga katta xizmat qildi. Bu tilning fors tili darajasidagi yuksak va rivojlangan adabiy til maqomiga ko'tarilishiga beqiyos va mislsiz ta'sir ko'rsatdi. Bu, albatta, ulug' so'z san'atkorining Sharq adabiyoti miqyosida barchaning e'tirofiga sazovor bo'lgan ulkan voqealik — “Xamsa”ning yaratilishi bilan bog'liq edi.

Alisher Navoiy ijodi aynan umumturkiy Renessans miqyosida turkiy xalqlar so'z san'atining barcha muhim taraqqiyot bosqichlarini o'zida mujassam etgan olamshumul adabiyotdir.

Buyuk etnos va uning so'nggi ulug'

imperiyalaridan biri bo'lgan madaniyat markazida kamol topgan Renessans vakili ijodining yana bir betakror jihati shundaki, bu cho'qqi faqat shakllanish va yuksalish bilan tugamaydi, aksincha, bu hodisaning davomiyligi, keyingi asrlarga nur sochishi va bir-birini to'ldirib, tarbiyalab, adabiy avlodlarning ma'naviy hayoti va ijodida yashab kelishidir.

Tasodif emaski, XVII, XVIII va XIX asrlar poetik cho'qqilari, hatto yangi davr Ozarbayjon adabiyotining asoschisi Mirzo Fatali Oxundzoda hamda XX asr she'riyati va poetika ilmining eng yorqin namoyandalari Alisher Navoiy nomini cheksiz hayrat va ulkan muhabbat bilan tilga olgan. XX asrning mo'jiza yaratgan so'z san'atkorlaridan biri — mashhur Ozarbayjon xalq shoiri Samad Vurg'unning Navoiy ruhiga cheksiz ehtiromi va “Farhod va Shirin” dostoni motivlari asosida o'zining mashhur “Farhod va Shirin” pyesasini yaratgani ham buni yaqqol tasdiqlaydi.

Mir Alisher Navoiy tavalludiga 585-yil bo'libdi. Biz faxrlanamiz va cheksiz g'urur tuyamizki, qariyb olti asrlik bu muazzam zamon nafaqat har yuz yilda, balki har bir kun va har lahzada ulug' mutafakkir bashoratlari hamda oldindan ko'ra bilgan hikmatlari hayotiylicini tasdiqlab kelmoqda.

R. BOBOJONOV
 (“Xalq so'zi”) yozib oldi.

Xabarlar

SHOIR DAHOSIGA TA'ZIM

Alisher Navoiy tavalludiga bag'ishlangan tadbirlar, ma'rifiy-badiiy kechalar mamlakatimizning barcha hududlarida ko'tarinki ruhda davom etmoqda.



FARG'ONA VILOYATI dagi Alisher Navoiy xiyobonida o'tkazilgan tadbırda so'zga chiqqanlar hazrat Navoiy ilgari surgan insonparvarlik, adolat, ma'rifat va ezigulik g'oyalari bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng jamrovli islohotlar mazmun-mohiyati bilan uyg'un ekanini ta'kidladi. Ayniqsa, bugungi dolg'ali zamonamizda ulug' shoirning tinchlik, bunyodkorlik va ezigulikka chorlovchi boqiy satrlarining qadri-qimmatı yanada yuksalmoqda.

Tantanalı tadbır adabiy-badiiy dastur bilan davom etib, barkamol avlod vakillari ijrosida Alisher Navoiy g'azallari yansadi, mumtoz kuy-qo'shiqlar jarangladi.

— Farg'ona shahridagi eng katta ko'chalardan biriga Alisher Navoiy nomi berilgani, shahar markazida Alisher Navoiy nomi bilan ataluvchi muazzam xiyobon qad rostlagani xalqimizning ulug' ajdodimizga hurmat va ehtiromi ramzidir, — deydi O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Farg'ona viloyati bo'limi rahbari Dilshoda Ergasheva. — Shuningdek, viloyat markazida yoshlar ijod bog'i barpo etilgani, Marg'ilon shahrida ijod maktabi faoliyat ko'rsatayotgani yurtimizda adabiyotga, she'riyatga berilayotgan ulkan e'tibor va rag'bat samarasi deyish mumkin.



SURXONDARYO VILOYATI dagi Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida milliy tafakkur me'moriga hurmat ko'rsatilib, uning sharafiga haykal o'rnatildi.

Haykalaning ochilish marosimida ulug' bobokalonimiz hayoti va ijodi haqida atroflicha so'z yuritildi. Navoiy ijodining badiiy-estetik qudrati, turkiy til taraqqiyotidagi tarixiy o'rni, ma'naviy-ma'rifiy merosining yoshlar tarbiyasidagi beqiyos ahamiyati alohida ta'kidlandi. Hazrat Navoiy nafaqat mumtoz shoir, balki milliy tafakkur me'mori, ma'rifatparvar davlat arbobi sifatida e'tirof ila ta'riflandi.

Ul zotning muborak siyмосi aks etgan haykal nafaqat buyuk shoir xotirasini abadiylashtirish, balki yosh avlodni vatanparvarlik, milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

“Xalq so'zi”.

RUHNI POKLOVCHI ULUG'VOR G'OYALAR RO'YOBGA

Shu kunlarda yurtimizda mutafakkir shoir Alisher Navoiy tavalludining 585-yilligi keng nishonlanmoqda. Dunyoning Tokio, Shanxay, Anqara, Seul, Boku, Moskva, Ostona, Dushanbe, Lakitelek, Minsk, O'sh kabi yirik shaharlarida shoir haykallari poyiga gulchambarlar qo'yilmoqda.

Surur

Mamlakatimiz rahbarining Navoiy viloyatiga ilk tashrifida “Otabobolarimizdan qolgan yaxshi an'analarni davom ettirib, navoiyxonlik, boburxonlik, mashrabxonlik kechalari o'tkazsak, bu borada Navoiy viloyati boshqalarga o'rnak bo'lishi kerak. O'zingiz aytib, bu masalada Alisher Navoiy bobomiz nomi bilan ataladigan viloyat o'rnak bo'lmasa, kim namuna bo'ladi?” degan da'vati e'tiborga molikdir.

Navoiyshunoslar anjumani

2017-yildan buyon Navoiy viloyatida Alisher Navoiy tavalludiga bag'ishlab xalqaro konferensiyalar o'tkazib kelinmoqda. Mazkur anjumanlar tufayli shoir ijodiy merosining yangi qirralari kashf etilib, ilmiy tadqiqotlar muhkama markazida bo'ldi. Buyuk mutafakkir ijodini o'rganish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar yaratildi. Eng muhimi, bu anjumanlar navoiyshunoslar uchun ta'sirli adabiy muhitni shakllantirdi.

— Bugun ulug' ajdodimiz asarlari jahondagi yuzlab tillarga tarjima qilinmoqda, — deydi Navoiy davlat universitetining o'zbek tili va adabiyoti fakulteti dotsenti Zarif Quvonov. — Dunyo ahli uning merosi bilan qiziqmoqda.

Tan olish kerakki, Navoiyni anglash ancha murakkab. Shoir ijodini tushunish uchun o'sha davr muhitini his etish, har bir baytini qayta-qayta o'qib, uning mag'zini chaqish zarur. Afsuski, asrlar osha mutafakkir bobomizdan biroq yiroqlashganimiz ham bor gap. Albatta, bunda sobiq sho'ro mafkurasi qo'ygan chekllovlar, ketma-ket alifbolarining almashtirilishi kabi muayyan sabablar bor. Biroq yetti yot tildagi tadqiq etib, asarlaridan bahra olayotganida bu vajlar ojiz taskindan bo'lak narsa emas.

— Alisher Navoiy o'n beshinchi asrda turkiy olamni yakka adabiy muhitga birlashtirgan edi, — deydi “Alisher Navoiy va Sharq Renessansi” IV

xalqaro simpoziumida ishtirok etgan Anqara shahridagi Boshkent universiteti professori, Alisher Navoiy nomidagi tadqiqotlar amaliy markazi direktori Abdurrahman Guzel. — Bugungi kunda ham butun dunyo navoiyshunoslari O'zbekiston atrofida jipslashmoqda.

Prezidentimiz simpozium ishtirokchilariga yo'llagan tabrigida bu mumtoz siymo jahon adabiyoti mezonlariga, zamon va tarix sinovlariga to'la javob beradigan durdona asarlar yaratib, nafaqat o'zbek, balki barcha bo'ladi?” degan da'vati e'tiborga molikdir.

— Men asli Baxda tug'ilganman.

AQShda yashab navoiyshunoslik bo'yicha tadqiqotlar olib bormoqdaman, — deydi Princeton universiteti professori Said Rizo Jaloliy Bakiy. — O'zbek xalqining tarixi va madaniyati bilan turli ko'rgazmalar orqali tanishman. Mamlakatingizga okeanortidan kelib amin bo'ldimki, Navoiy shahri haqiqatan zebo ekan. Hozir dunyoda Alisher Navoiyni o'rganish juda ko'plab rakurslardan olib borilmoqda. Men buyuk mutafakkir ijodi va faoliyati insoniyat bugun o'baro' kelayotgan bo'shliqlari to'ldirayotgan daho, deb bilaman. Shoirning betimsol dahosi qariyb olti asrki, bashar ahliga yo'l ko'rsatmoqda. Shu bois necha-necha avlod unga talpinadi. Insonga xos jami fazilatlar sirini ulug' mutafakkirning ibrati va ijodidan izlashga ehtiyoj sezadi. Bu ma'naviy ehtiyoj odamzodni ruhni poklovchi chashmaga boshlaydi.

O'tgan yili Navoiy viloyatida “Alisher Navoiy yili” deb e'lon qilingani ham e'tirofga sazovor. Shu munosabat bilan Prezidentimizning “Buyuk shoir

va mutafakkir Mir Alisher Navoiy ijodiy merosini yurtimiz va jahon miqyosida keng targ'ib qilish hamda Navoiy viloyatida “Alisher Navoiy yili”ni yuqori darajada o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori qabul qilindi. Unda “Alisher Navoiy va Sharq Renessansi” an'anaviy IV xalqaro simpoziumi va navoiyxonlik tadbirlarini yuqori saviyada o'tkazish, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida viloyatning barcha shahar va tumanlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyati bilan bog'liq holda so'lim bog' va xiyobonlar tashkil etish, Navoiy shahrida barpo qilinayotgan “Yangi O'zbekiston” bog'ida buyuk mutafakkirning haykali va “Xamsa” dostonlari mavzuidagi ramziy darvozalarni o'rnatish hamda memorial muzey ochishga alohida e'tibor qaratildi.

Har yili alohida reja asosida Alisher Navoiy ijodiga bag'ishlab ijodiy kechalari, tanlovlar, kitoblar nashri va taqdimoti hamda ilmiy-adabiy anjumanlar o'tkazish, ushbu tadbirlarga talabalar, yosh ijodkorlar va iqtidorli o'quvchilarni jalb qilish, ularni munosib rag'batlantirish orqali Navoiy viloyati tajribasini yo'lga qo'yish, “Hazrat Navoiyni anglash — o'zligimizni anglash” mavzuida respublika tanlovi, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda “Navoiyxonlik kechalari”ni o'tkazishdek vazifalar belgilandi.

“Mamlakatimiz rahbari tamal toshini qo'ygan Yangi Navoiy shaharchasi hamda “Yangi O'zbekiston” majmualarida qurilish va bunyodkorlik ishlari jadal sur'atlar bilan olib borilmoqda. Mazkur hududlarda o'tgan yili jami 90,5 mlrd. so'mlik qurilish va bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi.

reja asosida Alisher Navoiy ijodiga bag'ishlab ijodiy kechalari, tanlovlar, kitoblar nashri va taqdimoti hamda ilmiy-adabiy anjumanlar o'tkazish, ushbu tadbirlarga talabalar, yosh ijodkorlar va iqtidorli o'quvchilarni jalb qilish, ularni munosib rag'batlantirish orqali Navoiy viloyati tajribasini yo'lga qo'yish, “Hazrat Navoiyni anglash — o'zligimizni anglash” mavzuida respublika tanlovi, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda “Navoiyxonlik kechalari”ni o'tkazishdek vazifalar belgilandi.

Xalq dardi bilan yashash saodati

— Alisher Navoiy saroydagi faoliyatida 200 dan ortiq turli binolar qurilishiga bosh-qosh bo'lgan, — deydi

navoiyshunos olim Tohir Xo'jayev. — Madrasa, masjid, ko'prik, bog', hovuzlar barpo ettirgan, qurilishlarda ishlayotgan mingdan ortiq miskinlarga ziyofat qilib, shirin taomlar ulashgani, har yili muhtojlarga 2000 ga yaqin po'stin, chakmon va boshqa narsalarni hadya etishi saxovat va odamiylkning yuksak namunasidir. Navoiy bobomiz “Hayrat ul-abror”da xalq g'amini o'ylamaydigan, uning dardlarini tinglamaydigan kishilarni haqiqiy inson deb bo'lmasligini ta'kidlab, yana bir baytida “Menga yuz jaf o'zdek bo'lgan bir marta ham nolimayman, ammo xalqqa bir jaf qilsalar yuz marta faryod qilaman”, deb yozadi. Bu fikrlar xalqini sevgan har bir kishiga chuqur ibrat, yuksak namuna ifodasidir.

Mamlakatimiz rahbari tamal toshini qo'ygan Yangi Navoiy shaharchasi hamda “Yangi O'zbekiston” majmualarida qurilish va bunyodkorlik ishlari jadal sur'atlar bilan olib borilmoqda. Mazkur hududlarda o'tgan yili jami 90,5 mlrd. so'mlik qurilish va bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida viloyatning qator shahar va tumanlarida jami 18 mln. 192 ming tup daraxt hamda gul ko'chatlari o'tqazildi. Yo'llar, ko'priklar qurilib, ta'mirlanmoqda.

— Navoiy shahrida zamonaviy tipdagi yangi, kreativ dizayn, ya'ni kitob taxlami ko'rinishiga ega uch qavatli kutubxona qurilishi yakunlandi, — deya davom etadi Navoiy davlat universitetining o'zbek tili va adabiyoti fakulteti dotsenti Zarif Quvonov. — Maskan bir vaqtning o'zida 230 nafar kitobxonni qabul qilishga mo'ljallangan, imkoniyati cheklangan kitobsevar fuqarolari uchun ham

Alisher Navoiy dahosi, uning boy adabiy merosidan bahramandlik ulug' mutafakkirning bugungi kunda biz, avlodlar bilan yonma-yan ekanining isbotidir. Buyuk siymolar izidan ergashish, ularga munosib bo'lish istagi esa nainki inson, balki jamiyatni ham barkamollik sari yetaklayveradi.

barcha qulayliklar mavjud. Umumiy hisobda 171 mingta turli nomdagi ilmiy, badiiy, tarixiy adabiyotlarni o'z fondiga joylashtirishi mumkin. Eng muhimi, elektron kutubxona faoliyati ham yo'lga qo'yilib, dunyodagi eng yirik kutubxonalar bilan integratsiyalashadi. Bu turli davrlarda mamlakatimizdan olib chiqib ketilgan qo'lyozmalar asl nusxalari bilan ishlashda tadqiqotchilarimizga qator qulayliklar yaratadi. Ilmiy tadqiqotlarda bu nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Alisher Navoiy — ikkinchi Sharq Renessansining yirik namoyandalaridan biri. Bugungi kunda davlatimiz rahbari “Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo'yib, uni milliy g'oya darajasiga ko'tarmoqdami”, deya mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar maqsadini ifoda etarkan, unga eltuvchi yo'l ta'lim tizimi orqali ekanini uqtiradi. Ushbu yo'ldagi dastlabki qadam, shubhasiz, maktab va maktabgacha ta'lim tizimi islohotlarida ko'zga yaqqol tashlanmoqda. Xususan, “Alisher Navoiy yili”da viloyatda 5674 nafar o'quvchi o'rni yangidan yaratilib, 10 ming donadan ortiq badiiy adabiyotlar maktab kutubxonalariga keltirildi.

Oliy ta'lim muassasalari soni to'rttaga yetkazilib, Prezidentimizning 2024-yil 31-oktabrdagi “Navoiy davlat universitetini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga asosan Navoiy davlat pedagogika instituti negizida Navoiy davlat universiteti tashkil etildi. Bu esa buyuk mutafakkir bobomizning ma'rifati jamiyat qurish borasidagi orzulari bugun ro'yobga qarayotganidan dalolatdir.

Alisher Navoiy dahosi, uning boy adabiy merosidan bahramandlik ulug' mutafakkirning bugungi kunda biz, avlodlar bilan yonma-yan ekanining isbotidir. Buyuk siymolar izidan ergashish, ularga munosib bo'lish istagi esa nainki inson, balki jamiyatni ham barkamollik sari yetaklayveradi.

Iftixor

Navoiy olami

Hazrat Navoiyning har bir satrida, Yonma-yan yashaydi quvonch ila g'am. O'lmas g'azallarning sirli qatida, O'n sakkiz ming olam husni mujassam.

Navoiy ummondır, chuqur naqadar, Tubiga yetolmas biror-bir inson. Bo'ylarim o'sadi Tangritog' qadar, Hazrat Navoiyni o'qisam har tong.

Navoiydan meros har bitta so'zda, Toparman ilohiy ma'no va timsol. Shul vajdan intilar turkiy alfogza, Besh asrkim ahli bashar, ehtimol.

“Lison ut-tayr”ni o'qiganim on, Qo'nglim bo'stonida yashnaydi bahor. Alloh qudratiga keltirib imon, Inkishof etarman olamni takror.

Hazrat Navoiyni o'qiymen sahar, Lol bo'lib hayotbaxsh, nurli bayotga. Navoiy yo'llagan har mujda, xabar, Qaytadan keltirib meni hayotga.

Abdumajid AZIMOV.

Prezidentimiz farmoniga ko'ra, 1 yillik maktabga tayyorlov guruhlarining ta'lim dasturi majburiy umumiy o'rta ta'limning dastlabki bosqichi sifatida kiritiladi.

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-1242. 31 379 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va mualliga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkiloti javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begmatov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbachi muharrir A. Aqlulov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 01.12 Topshirildi — 01.20

1 2 3 4 5 6